

TOLERANTLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK – TARAQQIYOT OMILI TAMOYILINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Ochilov Ulug‘bek Musurmon o‘g‘li

Guliston davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada tolerantlik va millatlararo totuvlik – taraqqiyot omili tamoyilining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatiga oid masalalar ko‘rilgan.

***Tayanch tushunchalar:** mehribonlik, mehr-oqibat, xarakter, temperament va xulq atvoridagi o‘zgarishlar, emotsional irodaviy va yosh xususiyatlari, bag‘rikenglik, psixologik muhit, tinchlik, osoyishtalik, diniy e‘tiqod, milliy g‘urur va milliy iftixor.*

O‘zbek xalqining hayotida ro‘y berayotgan chuqur o‘zgarishlarda O‘zbekistonda yashovchi boshqa xalqlarning vakillari ham bir jon, bir tan bo‘lib qatnashmoqdalar. Ana shu xalqlarning hayotida ham chuqur tarixiy o‘zgarishlar faol sodir bo‘lmoqda. Millatlararo hurmat va totuvlik ruhi bilan ajralib turadigan O‘zbekistonda millati, diniy e‘tiqodi, tilidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning yakdilligini ta‘minlash siyosati yuritilyapti.

Bugungi kunda mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik beg‘ubor osmon, munavvar kunlarimizning qadr-qimmatini, ahamiyati har qachongidan ham ortib bormoqda. Ana shu tinchlik, osoyishtalik omili bo‘lgan diniy bag‘rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Yurtimizda xilma–xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zaminda buyuk g‘oya va sof niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi bag‘rikenglikning yorqin namunasidir.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo‘nalishida keltirilgan 74-maqсад jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan. Bugungi

vaziyatda dunyo qalqib turgan, turli mintaqalarda urush davom etayotgan, qon to'kilayotgan bir sharoitda milliy xavfsizlikni ta'minlashga jiddiy e'tibor berish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston deb atalgan umumiy xonadonimiz, 35 millionli ko'p millatli oilamiz istiqboli uchun diniy e'tiqodi, milliy mansubligi, kasbu kori va yoshidan qat'i nazar, har bir fuqaro mas'ul ekanini anglash, farzandlarimizni shu ruhda tarbiyalash asosiy vazifa etib belgilangan.

Ko'p millatli jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro ishonch va hurmat- millatlararo hamjihatlikning poydevori, mamlakatdagi xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishning harakatlantiruvchi kuchidir. Millat va elatlarning bag'rikengligi, o'zaro hurmati – jamiyat madaniyatlilik darajasining ko'rsatkichi, davlatdagi millatlararo totuvlikning asosi va shu bilan birga kelgusidagi muvaffaqiyatli rivojlanishning eng muhim sharti hamdir.

Shunisi e'tiborliki, bugungi kunda ham mamlakatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ustuvor yo'nalishlar olib borilmoqda.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 74-maqsadi diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasiga qaratilgan.

Qolaversa, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022 yil Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham "Millati, tili va dinidan qat'i nazar, O'zbekistonni o'zining Vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun hissa qo'shib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibori va ardog'ida bo'ladi. Millatlararo do'stlik, diniy konfessiyalar o'rtasidagi hamjihatlik, ijtimoiy bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz" deya ta'kidlab o'tgan edilar.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki bugungi kunga kelib, mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish borasida o‘ziga xos amaliy ishlar qilinib, namuna bo‘ladigan darajada tajriba orttirildi. Bunda milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odat va qadriyatlarini asrab-avaylash, hurmat qilish, mamlakatdagi boshqa millat vakillarini ham manfaatlarini har tomonlama o‘ylab, millatlarning umumiy birdamligini ta’minlashga erishilmoqda. Shu bois, Respublikamiz hududida istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari “O‘zbekiston – umumiy uyimiz”, “O‘zbekiston – yagona Vatan” shiori ostida yashamoqdalar va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etyaptilar

Bugun ishonch bilan shuni ayta olamizki, yurtimizda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikning noyob modelini yaratdik. Bizning jamiyatimizda ko‘pmillatlilik va madaniy xilma-xillik xalqimizning ma’naviy hamda ma’rifiy boyligining tugalmas qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarilganligi do‘stlik va hamjihatlik qo‘rg‘onining yanada mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi. Binobarin, bag‘rikenglik masalasi hamisha tinchliksevar Davlatimiz siyosatining asosini tashkil etib kelgan. Zero, bag‘rikenglik ta’minlangan yurtda tinchlik, barqarorlik hukm suradi hamda o‘zaro hamjihatlik, ishonch, hurmat kabi munosabatlar to‘liq qaror topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari G ‘ A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. - Toshkent: Movarounnahr, 2013. - 160 b.
2. Qo‘shaev U. Axborot iste‘moli madaniyati. - Toshkent: «Extremum-Press» nashriyoti, 2013. - 44 b.
3. Tulepov A. Intemetdagi tahdidlardan himoya. M as’ul muharrir A.Hasanov. - Toshkent: Movarounnahr, 2016. - 672 b.
4. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. - Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. - 224 b.